


TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

ANDIJON VILOYATIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019-yil yanvar-dekabr*)


Viloyatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Kelgusida ular jahon bozorida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladilar.

Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar borasida, 2019 yil yanvar-dekabr oylari hisobot davrida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2 533,2 million dollarni tashkil etib, 2018-yilning mos davriga nisbatan 16,4 % ga o'sdi. Shu jumladan, eksport 499,6 mln. AQSh dollar (o'sish sur'ati - 39,9 %), import esa 2 033,6 mln. AQSh dollarini tashkil qildi (o'sish sur'ati - 11,8 %). Tashqi savdo balansi 1 534,0 mln. AQSh dollari miqdoridagi passiv qoldiq qayd etildi.









**Dastlabki ma'lumotlar asosida*

2019-yil yanvar-dekabr oylari yakunida Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 42 177,8 mln. AQSh. doll., eksport 17 901,7 mln. AQSh. doll., import esa 24 276,1 mln. AQSh. doll.ni tashkil etgan. Viloyatining respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 6,0 %, eksportda 2,8 %, importda esa 8,4 % ni tashkil qildi.



Viloyatimiz dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshiradi. Dunyo mamlakatlari orasida uning tashqi savdo aylanmasining eng katta hajmi Koreya Respublikasi (54,4 %), Xitoy (9,8 %), Rossiya Federatsiyasi (8,8 %), Qirg'iziston (8,5 %), Qozog'iston (5,6 %), Turkiya (2,4 %), AQSh (1,9 %) va boshqa davlatlar 8,6 %.






2019-yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra viloyatning tashqi savdo aylanmasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. 2018-yilning shu davriga nisbatan tashqi savdoda eksport ulushi 19,7 foiz darajaga o'sdi.

2019-yil yanvar-dekabr oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlari bilan savdo hajmi 615,2 mln. AQSh dollarini tashkil qildi va O'zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 1,5 % dan ortdi.

Viloyatning qo'shni davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi o'zaro savdo-sotiqqa ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. MDH mamlakatlari bilan savdoning qariyb 24,3 foizi qo'shni davlatlar tomonidan amalga oshiriladi, shundan eksportning 75,7 foizi va importning 11,0 foizi qo'shni davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-dekabr oyilarida viloyatning MDH va boshqa davlatlarning tashqi savdo aylanmasida ulushi, foizda



Hisobot davrida viloyatning tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlari orasida Rossiya, Qirg'iziston va Qozog'iston davlatlari, tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 22,9 foizni


tashkil qiladi, boshqa davlatlar orasida Janubiy Koreya, Xitoy, Turkiya, AQSH, Shveysariya, Germaniya, Italiya, Chexiya, Braziliya va boshqa davlatlari hisoblanadi, ularning ulushi 77,1 foizni tashkil qiladi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo'lgan davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi

(2019-yil yanvar-dekabrida, foizda)



Viloyat tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo'lgan davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi

	Davlatlar	Tashqi savdo aylanmasi mln. AQSH dollar;	2018 yilga nisbatan foiz hisobida	Tashqi savdo aylanmasi ulushi, %
	Janubiy Koreya	1378,9	133,9	54,4
	Xitoy	249,5	114,6	9,8
	Rossiya	222,1	117,9	8,8

	Qirg'iziston	215,6	209,6	8,5
	Qozog'iston	142,0	176,5	5,6
	Turkiya	61,9	164,7	2,4
	AQSH	47,1	540,4	1,9
	Germaniya	20,9	205,4	0,8
	Shveytsariya	18,1	83,6	0,7
	Italiya	13,4	186,6	0,5
	Chexiya	12,7	154,5	0,5
	Braziliya	12,6	137,1	0,5

**Viloyat tashqi savdo aylanmasining qit'alar
bo'yicha taqsimlanishi**



Qit'lar nomi	2019-yil yanvar-dekabrda (mln. AQSH dollar)		Tashqi savdo aylanmasi	
	Eksport	Import	2018 yilga nisbatan foiz hisobida	Jamiga nisbatan foizda
Jami:	499,6	2033,6	116,4	100,0
Osiyo	409,2	1644,4	116,4	81,1
Yevropa	89,8	321,5	115,3	16,2
Amerika	0,5	67,5	123,6	2,7
Afrika	0,0	0,2	8,5 m	0,0

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida chet el sarmoyasi ishtirokidagi
korxonalarning asosiy ko'rsatkichlari**

Shahar va tumanlar nomi	Ro'yxatga olingan (birlik)	Ishlayapti (birlik)	Vaqtincha ishlamayapti (birlik)	Tashqi savdo aylanmasi (ming AQSh doll.)	Eksport (ming AQSh doll.)	Import (ming AQSh doll.)
Viloyat bo'yicha:	315	299	16	384 717,0	96 298,1	288 418,9
Andijon sh.	119	117	2	242 002,9	29 818,4	212 184,5
Shahrixon	24	22	2	5 821,4	3 764,5	2 056,8
Andijon	29	26	3	4 687,7	3 377,0	1 310,6
Asaka	16	16		10 287,7	804,2	9 483,5
Oltinko'l	17	16	1	20 892,8	11 682,7	9 210,1
Qo'rg'on tepa	10	8	2	83,0	4,4	78,6
Baliqchi	10	9	1	4 684,4	4 475,2	209,2
Marhamat	12	11	1	4 378,4	2 619,9	1 758,6
Izboskan	8	7	1	10 316,6	9 549,1	767,6
Buloqboshi	13	12	1	1 861,8	1 573,3	288,5
Xonobod sh.	14	14		70 712,1	25 491,6	45 220,6
Jalaquduq	9	7	2	2 003,2	851,0	1 152,2
Paxtaobod	7	7		72,1		72,1
Xo'jaobod	14	14		2 096,7	1 400,5	696,2
Ulug'nor	5	5		725,4		725,4
Bo'ston	8	8		4 090,8	886,4	3 204,3

Viloyatda chet el sarmoyasi ishtirokida jami 315 ta korxonalar mavjud bo'lib, shundan, joriy yilning shu davriga kelib 299 ta korxona faoliyat ko'rsatib kelmoqda, qolgan 16 ta korxona vaqtincha faoliyatini to'xtatgan. Chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalarning tashqi savdo aylanmasi jami 384,7 mln. AQSH dollar, viloyat tashqi savdosidagi ulushi 18,0 % ni tashkil qildi. Eksport 96,3 mln. AQSH dollar, import 288,4 mln. AQSH dollarga teng bo'ldi.

**Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi,
jamiga nisbatan ulushi foizda
(2019-yil yanvar-dekabr)**



2019-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat eksportining hajmi 499,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi (2018-yilning shu davriga nisbatan o'sish 39,9 % ga yetdi). Eksport qilinadigan mahsulotlar ulushi 99,2 % ni tashkil etdi, shundan tekstil va trikotaj mahsulotlari - 36,9 %, mashina va uskunalari 27,6 %, oziq-ovqat mahsulotlari - 20,8 %, qora va rangli metallar - 1,6 %, kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar - 0,9 %.

**MDH va boshqa xorijiy davlatlarning
eksport tarkibi
(2019-yil yanvar-dekabr)**

Eksport tarkibi	Jami			MDH			Boshqa davlatlar		
	Ming AQSh. doll.	2018 yilga nisbatan o'zgarish sur'ati %	Jamiga nisbatan ulushi %	Ming AQSh. doll.	2018 yilga nisbatan o'zgarish sur'ati %	Jamiga nisbatan ulushi %	Ming AQSh. doll.	2018 yilga nisbatan o'zgarish sur'ati %	Jamiga nisbatan ulushi %
JAMI:	499 574,9	139,9	100,0	391 170,1	164,2	100,0	108 404,9	91,3	100,0
Paxta tolasi	1 199,4	0,0	0,2				1 199,4	0,0	1,1
Oziq-ovqat mahsulotlari	103 897,7	128,0	20,8	88 658,1	114,2	22,6	15 239,6	427,7	14,1
kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	4 336,5	163,9	0,9	3 920,1	159,5	1,0	416,4	221,7	0,4
qora va rangli metallar	7 977,5	544,8	1,6	7 862,3	597,9	2,0	115,2	77,2	0,1
mashina va uskunalari	137 810,6	318,1	27,6	132 277,4	320,2	33,8	5 533,2	275,5	5,1
tekstil va trikotaj mahsulotlari	184 344,5	87,8	36,9	99 328,0	100,2	25,4	85 016,5	76,7	78,4
Xizmatlar	4 122,6	88,0	0,8	3 238,1	73,3	0,8	884,5	332,7	0,8
Boshqalar	55 880,1	410,4	11,2	55 880,1	467,9	14,3			

**Eksport tuzilmasi dinamikasi
(2019-yil yanvar-dekabr)**

Eksport tarkibi	2017 y.	2018 y.	2019 y.
JAMI:	100,0	100,0	100,0
Paxta tolasi	-	-	0,2
Oziq-ovqat mahsulotlari	17,7	23,4	20,8
kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	0,4	0,7	0,9
qora va rangli metallar	0,2	0,3	1,6
mashina va uskunalari	36,2	12,3	27,6
tekstil va trikotaj mahsulotlari	37,7	58,4	36,9
Xizmatlar	1,0	1,3	0,8
Boshqalar	6,8	3,6	11,2

Soʻnggi uch yil ichida eksport tarkibini diversifikatsiyalash dinamikasi kuzatilmoqda. Shunday qilib, oziq-ovqat mahsulotlari ulushi 3,1 foiz darajaga oʻsdi va 20,8 %, qora metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar - 1,4 % va boshqalar - 4,4 % ni tashkil etdi. Qolgan pozitsiyalar eksport tarkibida mashina va uskunalari, energiya va neft mahsulotlari ulushining sezilarli darajada oʻsishi hisobiga pasayganligini koʻrsatmoqda.


Tekstil va trikotaj mahsulotlari eksporti dinamikasi

(yanvar-dekabr, ming AQSh doll.)

Mahsulotlar nomi	2018 y.	2019 y.
Kalava ip va gazlamalar	123 844,4	79 618,7
Tayyor tekstil kiyimlar	66 296,2	76 246,5
Tekstil matolar	1 798,1	3 657,3
Tikuvchilik mahsulotlari	1 294,2	2 260,8
Boshqa tekstil tayyor mahsulotlari	1 670,0	1 708,6
Maxsus gazlamalar	617,7	284,7
Ipak va shoyi gazlamalar	6 867,2	15942,9
Gilamlar	5,0	1,4
Paxta, kiygiz va notoʻqima matolar	7 572,2	4 617,8

2019-yil yanvar-dekabr oylarida tekstil va trikotaj mahsulotlarini eksport hajmi 184,3 mln. AQSh dollarni tashkil etdi va 2018-yilning shu davriga nisbatan 87,8 foizga kam boʻldi, jami eksportdagi ulushi 36,9 foizni tashkil qildi. Tekstil va trikotaj mahsulotlari eksportining asosiy qismi paxta tolasi (43,2 %), shuningdek tayyor trikotaj va kiyimlar (41,4 %) hisoblanadi.

**Tovar va xizmatlarning import tarkibi,
jamiga nisbatan ulushi foizda
(2019-yil yanvar-dekabr)**



2019-yil 12 oyida viloyatning import hajmi 2 033,6 million dollarni tashkil etdi (o'sish sur'ati - 11,8 foiz). Uning tarkibida asosiy ulushni mashina va uskunalari, shu jumladan extiyot qismlar va butlovchi qismlar (64,8 %), kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar (12,2 %), shuningdek qora va rangli metallar (8,4 %) e'gallaydi.

MDH va boshqa xorijiy davlatlarning import tarkibi (2019-yil yanvar-dekabr)

Import tarkibi	Jami			MDH			Boshqa davlatlar		
	Ming AQSh. doll.	2018 yilga nisbatan o'zgarish sur'ati %	Jamiga nisbatan ulushi %	Ming AQSh. doll.	2018 yilga nisbatan o'zgarish sur'ati %	Jamiga nisbatan ulushi %	Ming AQSh. doll.	2018 yilga nisbatan o'zgarish sur'ati %	Jamiga nisbatan ulushi %
JAMI:	2 033 622,5	111,8	100,0	223 641,2	114,2	100,0	1 809 981,4	111,5	100,0
Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	247 261,2	143,5	12,2	18 306,1	111,6	8,2	228 955,1	146,9	12,6
Qora va rangli metallar	170 443,3	139,9	8,4	98 846,4	125,3	44,2	71 596,9	166,7	4,0
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	12 511,1	99,0	0,6	10 418,5	98,9	4,7	2 092,6	99,7	0,1
Mashina va uskunalar	1 318 167,1	103,6	64,8	37 562,6	172,7	16,8	1 280 604,5	102,4	70,8
Oziq-ovqat mahsulotlari	16 657,6	51,6	0,8	10 871,9	41,9	4,9	5 785,8	91,7	0,3
Xizmatlar	145 685,1	122,2	7,2	5 833,0	250,9	2,6	139 852,1	119,6	7,7
Boshqalar	122 897,2	138,7	6,0	41 802,7	104,4	18,7	81 094,5	166,9	4,5

Import tuzilmasi dinamikasi (2019-yil yanvar-dekabr)

Import tarkibi	2017 y.	2018 y.	2019 y.
JAMI:	100,0	100,0	100,0
Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	11,1	9,9	12,2
Qora va rangli metallar	7,4	7,0	8,4
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,4	0,8	0,6
mashina va uskunalar	67,1	70,1	64,8
Oziq-ovqat mahsulotlari	2,6	2,1	0,8
Xizmatlar	6,1	5,0	7,2
Boshqalar	5,3	5,1	6,0

Mashina va uskunalar dinamikasi

(yanvar-dekabr, ming.AQSh.doll.)

Tarkib	2018 y.	2019 y.
Transport vositalari	990 332,5	878 086,1
Uskunalar va mexanik qurilmalar, ularning qismlari	197 983,7	256 122,9
Elektr dastgoxlar va jixozlar, ularning qismlari	38 335,7	87 680,0

2019-yil yanvar-dekabr oylarida mashina va uskunalar importi 1 318,2 mln. AQSh. doll. ga teng bo'lib, 2018 yilning shu davriga nisbatan 3,6 % ga o'sgan. Viloyatning jami importidagi ulushi 64,8 %, Uning tarkibida asosiy ulushni transport vositalari (66,6 %), uskunalar va mexanik qurilmalar, ularning qismlari (19,4 %), shuningdek, elektr dastgoxlar va jixozlar, ularning qismlari (6,7 %) e'gallaydi.

Viloyat eksportining asosini tekstil va trikotaj mahsulotlari, mashina va uskunalar tashkil etgan. Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 299 ta eksport qiluvchi korxonalar mavjud bo'lib, ular tomonidan 46 ta uzoq va yaqin mamlakatlarga eksport amalga oshirilgan.

**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**

(71) 230-82-53